



**Tibbiyotda emlash bo‘yicha ko‘rsatmalar va fiqh manbalarida emlashga doir  
hukmlar**

*Botirova Nigina Baxodir qizi*

*O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi “Islamshunoslik” yo‘nalishi  
2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tibbiyotda emlashga oid ko‘rsatmalar, vaksina va uning turlari, vaksinatsiya, fiqh manbalarida emlashga oid fatvolar, vaksinalarning foydali va zararli jihatlari , mamlakatimizda emlash jarayoni, haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** vaksina va uning turlari, vaksinatsiya, islohotlar, fatvolar, salomatlik.

Vaksinatsiya (emlash) – bu sun’iy immunitet hosil qilish bo‘lib, organizmga patogen mikroorganizmlarning antigeni yuborilib, kasallik chaqiruvchi infeksiyalardan himoyalanish usulidir. Organizmga mikroorganizm antigenini yuborgandan keyin unga qarshi maxsus antitelo ishlab chiqariladi.

Vaksina bu yuqumli kasalliklarga qarshi immunitetni yaratish uchun mo‘ljallangan tibbiy preparat hisoblanadi. Vaksina zaiflashgan yoki o‘ldirilgan mikroorganizmlardan yoki ularning genetik muhandislik yoki kimyoviy vositalar yordamida olingan antigenlaridan tayyorlanadi.

Emlash organizmda ma’lum xotira hujayralari paydo bo‘lishi orqali moslashuvchan immunitet reaksiyasini rag‘batlantiradi. Keyinchalik shu agent bilan infeksiyanish tezkor immun reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Vaksinatsiya profilaktika maqsadida va davolash maqsadida o‘tkaziladi. Vaksina, patogen mikroorganizmlarning tirik, lekin kuchsiz shtammlaridan tayyorlansa, samarasи yaxshiroq bo‘ladi (tahminan 10-15 %), o‘lgan mikroorganizmlar shtammlardan tayyorlangan vaksinalar organizm uzoq muddat immunitet hosil qilishini talab qiladi. Hozirgi zamonaviy tibbiyotda ikkala turdag‘i vaksinalar ham o‘tkaziladi, ayniqsa noaktiv (o‘lgan mikroorganizmlar) vaksina maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda ko‘p qo‘llaniladi.

Revaksinatsiya o‘z nomi bilan – organizm kasallikka qarshi immunitetini kuchaytirish maqsadida qaytadan vaksina yuborish deganidir. (Har qanday terminga



qo'shilgan "re" qo'shimchasi "qayta" degan ma'noni anglatadi.) Qayta vaksinatsiya o'tkazilganda organizm immuniteti kuchayadi.

Revaksinatsiya o'tkazish ayrim turdag'i emlashlar uchun xos, ba'zi vaksinalar yetti martagacha qayta o'tkazilsa, ayrimlari faqatgina bir marotaba o'tkaziladi. Masalan, difteriya (bo'g'ma) va qoqsholga qarshi revaksinatsiya 16 yoshgacha uch marotaba, keyinchalik har 10 yilda 1 marotaba 56 yoshgacha o'tkaziladi.

Mamlakatimizda 2 xil vaksinatsiyalar farqlanadi: asosiy va qo'shimcha.

Asosiy – mahalliy mavsumga qarab, eng og'ir va hayot uchun xavfli bo'lgan kasallikkarga qarshi profilaktik vaksina o'tkazish.

Qo'shimcha – xohishga ko'ra, hayot tarzidan kelib chiqib (masalan sayohatga chiqishdan oldin), epidemik holatga qarab vaksinatsiya o'tkazish.

Profilaktik vaksinalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Pnevkokkga qarshi vaksina – Streptococcus pneumonia bakteriyasiga qarshi vaksina, uning 23 ga yaqin xavfli shtammlariiga qarshi (PNEVMO-23) vaksinatsiya;
- Meningokokkga qarshi vaksina – bu bakteriyaning o'ziga xosligi shundaki, meningokokkning himoya kapsulasiga qarshi 1 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar tabiiy ravishda immunitet hosil qila olishmaydi, shuning uchun bu kasallik bilan 50 % ga yaqin bolalar kasallananadilar. Meningokokk qarshi ikki xil vaksina bor: Rossiya va Fransiya ishlab chiqargan (A va C shtammga qarshi).
- Ensefalitga qarshi vaksina – virus chaqiruvchi o'choqli, markaziy asab tizimini zararlovchi, kanalar chaqishidan kelib chiqadigan kasallik. Bolalarni ochiq tabiat qo'yniga olib chiqqanda hasharot chaqib olib kasallikni yuqtirib olmaslik uchun vaksinatsiyalar profilaktik maqsadda o'tkazish kerak.
- Sayohatga chiqmoqchi bo'lganlar, borayotgan mamlakatlarida qanday kasallik turlari uchrashini va ularga qarshi vaksinalar bilan himoyalanishi zarur bo'ladi.

Mamlakatlarda uchraydigankasalliklar haqida BJSST ning rasmiy saytidan ma'lumot olish mumkin.

Ўзбекистон Республикасида  
профилактик эмлашлар календари

Ёш	Эмлаш түри
1суттада	ВГВ-1
2-5 кун	БЦЖ-1
2ойлик	ОПВ-1, Рота-1, Пента-1, <b>Пневмо-1</b>
3ойлик	ОПВ-2, Рота-2, Пента-2, <b>Пневмо-2</b>
4ойлик	ОПВ-3, Пента-3, ИПВ
12ойлик	КПК-1, <b>Пневмо-3</b>
16 ойлик	ОПВ-4, АКДС-4
6ёш	КПК-2
1синф (7ёш)	ОПВ-5, АДС-М-5
16ёш	АДС-М-6

Musulmonlar orasida emlash boshqa nom bilan aytganda vaksinatsiya borasida bir qancha ixtiloflar yuzaga chiqmoqda va ko‘pgina munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bir guruh bolalarni turli kasalliklarga qarshi emlashni yoqlab chiqsa, boshqa toifa esa turli sabablarni ko‘rsatgan holatda, bunga umuman qarshi chiqmoqda. Vaksinatsiya bu tirik organizmga muayyan kasallik mikroblarini zaiflashtirgan holda kiritish orqali, unda mazkur kasalikka qarshi immunitetni shakllantirishdir.

Emlashning ilk ko‘rinishlari qadimgi Xitoy va Hindistonda ishlatilgani ma’lum. Yevropada esa emlash bo‘yicha ilk tajriba 1796-yil Angliyada Jenner ismli anketachi tomonidan amalga oshirilgan. Emlashning bu turi “enokulyasiya”deb atalgan.

Dastlab emlash ishlari asosan qoramollarda amalga oshirilgani sababli Paster o‘z prepertallariga lotin tilidan “sigir” deb tarjima qilinadigan “vaksina”nomini berdi. Paster 1881-yilda sibir yarasi, 1885- yilda esa quturishga qarshi vaksinalarni ishlab chiqdi.

Keyinchalik emlash dunyoning boshqa mamlakatlariga tarqaldi. Bugungi kunda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida, xususan O‘zbekistonda bolalar xalqaro standartlaridan kelib chiqqan holda, maxsus taqvim asosida, bir kunligidan boshlab 16 yoshgacha 11 bosqichda, 8 xildagi kasalikka qarshi vaksina bilan emlanadi. Mazkur turdagи vaksinalarga

sil , difteriya, ko‘kyo‘tal, qoqshol, qizamiq, shol, tepki, gepatit B kasalliklariga qarshi vaksinalar kiritilgan.

Butun jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra emlash natijasida har yili dunyo bo‘yicha 3 million bolaning hayoti saqlanib qolinadi. Yana 5-10 yildan so‘ng, eng zamonaviy preparatlar qo‘llanishi bilan bu raqam 8 millionga ko‘tarilishi kutilmoqda.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, vaksinalar paydo bo‘lmasidek avval go‘daklar o‘limi ko‘p bo‘lgan. Ular bugungi kunda davolanishi oddiy bo‘lgan kasalliklardan ham vafot etganligi keltiriladi.

Emlatish bolalarni turli kasalliklardan asrab-avaylashda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi, undan ko‘zlangan maqsad islom dinining yuqorida zikr etilgan asosiy tamoyillariga to‘la mos keladi. Ba’zi mutaassib oqimlar turli asossiz ma’lumotlarga tayangan holda emlashdan voz kechmoqdalar. Bugungi kunda ko‘zga ko‘ringan islom ulamolari ham emlash borasida to‘xtalib, hatto ,bu ishni diniy amal – farz darajasiga ko‘targanlar. Emlatmaslik oqibatida kasallikka yo‘liqqan farzandlarning ota-onalari gunohkor bo‘lishini ta’kidlaydilar. Bundan tashqari ulamolar vaksinatsiyaga qarshi chiqqan ba’zi soxta ulamolarni jaholat va taassubda ayblaydilar.

Vaksina nafaqat faol modda, balki turli xil yordamchi komponentlar ham uning tarkibini tashkil etadi, ularning ba’zilari “harom” (ta’qiqlangan) deb tasniflanishi mumkin. Shunga asoslanib, ba’zilar emlashlar mumkin emas deb hisoblashadi, chunki najasni inson tanasiga kiritish ta’qiqlangan.

Islomdagagi nopliliklar ro‘yxatiga cho‘chqaning har qanday hosilasi, shuningdek, inson qoni kiradi. Ro‘yxatdagagi boshqa aralashmalar (najas, siydik, quşish, o‘lik, alkogol, yiring, sperma va itning tupurigi) vaksinalar va ularni ishlab chiqarish bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Vaksinalar tarkibiga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan moddalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Inson albumini. Ba’zi vaksinalar stabilizator sifatida inson albuminini o‘z ichiga olishi mumkin. Texnik jihatdan biz buni najas bilan bog‘lashimiz mumkin. Ammo shuni yodda tutishimiz kerakki, islom dini qon quyishni ta’qiqlamaydi (uning tarkibiy qismi albumin). Shunday qilib, bu argument savol tug‘dirmaydi.

2. Jelatin. Umumiy ro'yhatda mavjud bo'lgan moddalardan biridir. Biroq, ayrim musulmon yetakchilari vaksinalarda jelatinni qo'llash diniy qonunlarga zid emas, chunki uyuqori darajada tozalanadi, degan qarorga kelgan. 1995-yilda 100 dan ortiq yetakchi islam olimlari Quvaytda Islom tibbiyot fanlari tashkiloti o'tkazgan seminarda ushbu masalani muhokama qilgandan so'ng, jelatin vaksinalarda foydalanish uchun yetarli darajada tozalanganligini e'lon qildi.

Ushbu stabilizatorga munosib alternativ hali yo'q. Agar muqobil bo'lmasa, bu mumkin. Shariatda qiyinchilik yuzaga kelganda agar ularga muqobil bo'lmasa foydalanishga ruxsat beriladi, xususan, zarur dori-darmonlarni (shu jumladan vaktsinalarni) ishlatish imkoniyati mavjud. Ko'pgina dorilar jelatin kapsulalarida mavjud va muqobil bo'lmasa ham foydalanish mumkin.

3.Odam va hayvon hujayralari. Inson va hayvon hujayralarini najas deb tasniflash mumkin, chunki kelajakdagi o'lmas hujayralar uchun to'qimalar namunalari, ehtimol, shariat qonunlariga ko'ra olimmagan. Ammo bu hujayralar vaksinalarga kiritilmagan. Ular ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladi va vaksinaning faol moddasini ishlab chiqarish uchun substrat bo'lib xizmat qiladi.

Yosh bolalarni shol bo'lishiga qarshi emlash haqida Butunjahon musumon ulamolar ittifoqining bayonnomasida quyidagi fatvolar zikr qilinadi.

Islom olamidagi ba'zi davlatlarda bolalarini shol bo'lishiga qarshi emlashishdan man qilayotganlari xabari butun dunyo musulmon ulamolarining birlashmasiga yetib keldi. O'sha dorini bolalarga og'iz orqali yuborib, xatarli kasallikni oldi olinar edi. Albatta bu qilinayotgan tadbir Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning Imom Xatib hasan sanad ila Abu Hurayradan qilgan quyidagi hadislarida o'z aksini topgan: "Kim o'zini ehtiyyot qilsa, o'sha kishi muhofaza qilinadi".

Butun dunyodagi zikr ahlidan bo'lgan shifokorlar o'n yildan beri inson emlashni, xususan yosh bolalarni emlashni ahamiyatli ekanini ta'kidlab kelishadi. Ana shunday qilishlari turli yuqumli kasalliklarning oldini oladi. Alloho ni fazli inoyati bilan ko'plab kishilar epidemiya kasalliklaridan xalos bo'lishdi. Butundunyo sog'liqni saqlash birlashmasi ham o'ziga a'zo davlatlari bilan qilgan xarakati natijasida yigirma yil oldinroq chechak kasaliga kurashib, uni inshaalloh qaytmaydigan darajada yo'q qilib tashladi. Mana

shu tajriba butun dunyoni yosh bolalarda sodir bo‘ladigan shol kasaliga kurashishga undadi. Jamoat holatda o‘sha kasallikka qarshi emlashga kirishildi.

Yosh bolalarni shol qiluvchi viruslardan tarkib topgan narsaga vaksina yuborish bilan u kuchsizlanar yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketar edi. O‘sha dori og‘iz orqali yoki inyeksiya orqali yuborilardi. Bu ikki uslub o‘z foydasi hamda faoliyatini namoyon qildi. Allohning fazli va marhamati bilan butun dunyo kurashgan narsa muvaffaqiyat qozondi. Natija shu darajaga borib yetdiki, ilgari har kuni butun dunyoda mingga yaqin shu kasallik holati aniqlangan bo‘lsa, oxiri bir yilda ana shunday kasallik bilan bog‘liq mingta holat kuzatiladigan bo‘ldi.

Shu tarzda Islom konferentsiyasi tashkilotiga a’zo bo‘lgan 57 ta davlatdan 52 tasi bu talafotli kasallikkdan xalos bo‘ldi. Ammo boshqa ba’zi davlatlarda kasallik hanuzgacha davom etib kelmoqda. Albatta, buning sababi kasallikni tag-tomiri bilan yo‘q qilishmagani sababdir. Islom konferentsiyasi tashkiloti 2003-yili a’zo bo‘lgan barcha davatlarni ushbu kasallikka qarshi kurashishga chaqirdi. Bu yo‘ldagi to’siqlardan biri, ba’zi islomiy o‘lkalardagi shayxlar bu narsani noto‘g‘ri tushunib, ularni gumonlaricha bu dori o‘zida kimyoviy, moddalarini mujassam qilib zararli asoratlar qoldirishini yoki ayollarda bepushtlik holatlarini keltirib chiqarishini talqin qilishmoqda. Bundan tashqari eskirib qolgan moddani o‘zida jamlagani uchun badanga kiritish joiz emas degan turli sabablarni keltirishmoqda.

Emlash xususida ulamolar o‘zaro birlashib yakdil fikrlarni bildirishgan. Har bir ilm bo‘limi haqida shu sohadagi mutaxassislardan so‘rash kerak” (“Latoif al-ishorot” 1/94).

Har bir fanning o‘z odamlari bor ( al-Muqaddima 436, Fathul-mug‘is 1/220)  
Ibn Xaldun va as-Sahoviy.

Oysha (r.a)ning o‘zi ham musulmon bo‘lmagan tabiblarga murojaat qildi:  
Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning betoliklari kuchaygach, arab va xorijlik tabiblar dorilar yozib berishdi va men uni qanday davolash kerakligini bilib oldim”. -Tabaroniy, al-Bazzor, Majma'u-z-zavoid, al-Haysamiy, 9/242) Ibn Al Qoim.

Shunga ko‘ra Butunjahon musulmonlar ulamolari kengashi quyidagilarni ta’kidlaydi:



1. Har bir musulmon o‘z joniga kelayotgan zararni imkoni boricha daf etmog‘i vojib. O‘z qo‘li bilan halokatga olib bormaydi. Yoki o‘z jonini o‘ldirmaydi. Chunki uning joni Alloh huzirida omonatdir.

“U kishi haddan oshishi joiz emas. Alloh taolo bu haqda o‘zingizni halokatga tashlamang” (Baqara, 195). “O‘zlarizingizni o‘ldirmang. Albatta Alloh sizlarga mehribon bo‘lgan zotdir” (Niso, 29).

Amr ibn Os sheriklari bilan g‘azotga borganlarida qish oyining sovuq kechasida junub bo‘ladilar. G‘usl qilmay, tayammum bilan kifoyalandilar. Sheriklari ana shu qilgan ishlarini Rasululloh sallallohu alayhi vasallamga aytib shikoyat qilishganida, Amr ibn Os: “Ey Allohnинг rasuli kecha juda sovuq edi. Men Allohnинг quyidagi “O‘zlarizingizni o‘ldirmang. Albatta Alloh sizlarga mehribon bo‘lgan zotdir”, deb aytgan sizni esladim”, dedilar. Shunda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bir jilmaydilar-da, u kishi tushunib amal qilgan narsasiga iqror bo‘ldilar. Mana shu taqririylar sunnat deb nomlanadi. Mana shu narsada shar’iy yoki fiqhiy qoida qaror topgandir. U zararni imkon qadar daf qilinadi. Bu qoidaning asli quyidagi hadisi sharifdan olingan: “Zarar berish ham, zarar ko‘rish ham yo‘q”. Ibn Moja, Dori Qutniy, Hokim rivoyati. Bu narsani boshqa qoida ham o‘zida mujassam qilgan. Fasod narsani daf etish, manfaatini jalb qilishdan oldin turadi.

2. Endi otalarning vazifasi haqida gapirilsa, bu ofat kasalni oldini olib, bolalariga himoya bo‘luvchi barcha vositalarni muhayyo qilmog‘i lozim. Alloh otalarni mana shunday vazifani ko‘tarishga mas’ul qilgan. Biror aqli kishi yosh bolalarni shol bo‘lishidagi katta zararga shubha qilmaydi. Bu juda ham yomon kasallikki, agar bola o‘lmasdan shu kasalda bardavom bo‘lsa, umr bo‘yi qiynalib, boshqalarga muhtoj bo‘lib qaramog‘ida qolishi mumkin. Bu esa jamiyatga ham ozor beradi. Emlash orqali bu xatarli kasallikning oldi olinar ekan, otalar farzandiga bu dorilarni yetkazishga harakat qilishsin. Agar bunday qilmaydigan bo‘lishsa, bolasining sog‘ligi yomonlashgandagi gunohni va umr bo‘yi azoblanishdag‘i mas’uliyatni o‘z ustiga yuklab oladi. Chunki ota hayotda qo‘l ostidagilarga mas’uldir.

Alloh taolo bu haqda shunday deydi: “O‘z bolalarini aqlsizlik qilib johillik bilan o‘ldirgan kimsalar muhaqqaqki, (o‘zlariga) ziyon qildilar” (An‘om, 140). Shuningdek, “Bolalari sababli ota ham, ona ham zarar tortmasin” (Baqara, 233), deb aytgan. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Kishi o‘z qaramog‘ida kishilarni zoye qilishi gunohkor ekaniga

kifoya qiladi”, dedilar. Imom Ahmad, Abu Dovud, Hokim va Bayhaqiyalar Abdulloh ibn Amrdan hasan sanad bilan rivoyat qilishgan. Boshqa bir hadisda: “Alloh taolo barcha homiylarni qo‘l ostidagilarni unga rioya qilganni yoki zoye qilganmi bu haqda so‘roq savol qilur”, deb aytganlar.

3. Barcha o‘lkadagi mutasaddi kishilardan iltimosimiz shuki, umuman odamlarning sihatiga, xususan bolalarni sog‘ligini saqlashga e’tibor berishsin. Faqat muolaja jihatidan emas, balki oldini olish jihatidan ham e’tibor qaratishsin.

Imom Buxoriy va Muslim ibn Umardan qilingan rivoyatda: “Barchalaringiz homiysiz va qo‘l ostingizdagilarga mas’ulsiz. Imom homiydir va qo‘l ostidagilarga mas’uldir. Erkak o‘z ahliga homiydir va qo‘l ostidagilarga mas’uldir”, deyilgan. Umar roziyallohu anhu: “Agar Firot daryosi qirg‘og‘ida biror echki bolasi halok bo‘lsa, qiyomat kuni Alloh huzurida o‘sha haqida meni so‘roq qilinganimni ko‘rursizlar”. Boshliqlarga toat qilish Qur’on oyatlari va sunnatga binoan vojibdir. Chunki bu ham yaxshilik uchun toatdir. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Musulmon kishi madomiki ma’siyatga buyurilmas ekan, yaxshi ko‘rganiga ham yomon ko‘rganiga ham toat qilmog‘i darkor”, deb aytganlar.

4. Alloh insonlar uchun yaratgan narsalarning asli pok va haloldir. Masalan quyidagi oyatda: “U shunday zotki, siz uchun yerdagi barcha narsani yaratdi” (Baqara, 29) deydi.

Shuningdek, “(Ey insonlar), Alloh osmonlar va yerdagi barcha narsalarni sizlarga bo‘ysindirib qo‘ygani va sizlarga barcha hiriylari va botniy (ya’ni moddiy-ma’naviy) ne’matlarini komil qilib bergenini ko‘rmadinglarmi?!” (Luqmon, 20) deb aytilgan. Narsalar, poklik aslida faqatgina yaqiniy – o‘ta ishonchli narsa bo‘lgandagina chiqadi. Endi shu usul qoidasini ishga soladigan bo‘lsak, bolalarni emlashdagi iste’mol qilinadigan dorida haromni keltirib chiqarishga sabab bo‘luvchi zarar, najosat yoki bepusht bo‘ladigan narsa yo‘qdir.

Zarar yoki najosatni isbotlaydigan manba – soha mutaxasislaridir. Barcha fanlarda ularga murojaat qilinadi. Alloh taolo: “(Hech kim sizga) sizga xabardor zot kabi xabar bera olmas” (Fotir, 14); “U zot haqida ogoh-bilimdon (kishilar)dan so‘rang” (Furqon, 59); “Agar bilmaydigan bo‘lsangizlar ahli ilmlardan so‘ranglar” (Naxl, 43) deb aytgan.

Mavzuimizga tegishli soha vakillari ular butun dunyo sog‘liqni saqlash birlashmasidagi ishonchli kishilar hamda Qohiradagi iqlimlararo idoradagi ishonchli ilmli dindor omonatgo‘y mutaxasislardir. Ular: “Bu emlashda zarar ham najosat ham, ifloslik ham



yo‘q. Shuningdek, bepushtlik asoratlarini keltirib chiqarmaydi. Balki bu vaksina pok, foydali tajribadan o‘tgan bo‘lib, Alhamdulillah, barcha holatda maqtovli asoratlar qoldirmaydi”, deb aytilgan.

5. Bolalarda uchraydigan qarshi emlashni dunyoni barchasida sharqda, g‘arbda, shimolda, janubda turli millatda rangdagi, tildagi, dindagi kishilar bajarib kelishmoqda. Islomiy konferensiya tashkilotiga kiruvchi 50 tadan ko‘proq davlatdagi musulmonlar ham bajarib kelishmoqda. Bu xatarli kasallikdan o‘zlarini saqlashmoqda. Osiyo yoki Afrikadagi islomiy o‘lkalardagi biror kishi ana shu emlash islomga shariatiga xilof deb aytmaydi. Azhar dorulfunidagi yoki kasbiy ortidagi yoki Makka va Madinadagi yoki Devbanddagagi yoki musulmon o‘lkadagi unga qarshi chiqmaydi. Bunga qarshi oqimlar bolalarni o‘lib ketishidagi va bu kasalga mubtalo bo‘lishdagi gunohni o‘zlariga yuklashadi. Chunki chechak kasaliga barham berilganidek bu kasalni ham butkul tomiri bilan yo‘q qilishga kirishilgandir.

Islom dini inson jasadini hurmat qiladi. Rasululloh sallallohu alayhi vasallam “Jasadingni seni ustingda haqqi bordir”, deganlar. Imom Buxoriy va Muslim Abdulloh ibn Amrdan qilgan rivoyatda keltiriladi.

Davolanishni barcha ko‘rinishini bu din shariatga kiritgan. Islom sivilizatsiyasida tibbiyotning o‘rni katta bo‘lgan. Ilm bu dindir, xuddi din ilm bo‘lgani kabidir. Ushbu ulamo birodarlargacha iltimosimiz shuki, tayorgarsizlik boshqa musulmon ulamolari bilan birga maslahatlashmay chiqargan fatvolaridan qaytishsin. Haqqa ergashish haqliroqdir. Ilmdan boshqa buyuklik yo‘qdir. “Har bir ilm sohibining ustida bilimdon bordir” (Yusuf, 76). Umar roziyallohu anhu Abu Musoga “Kechagi chiqargan hukmingdan bugun qaytish man qilmasin. Albatta haqqa qaytish botilda qolishdan yaxshidir”. Dunyodagi barcha musulmon birodarlarimizni Islom olamidagi ulamolari jumhuri chiqargan fatvoga qulqoq osishga chaqiramiz. Bu xatarli kasalni oldini olib shol bo‘lishga qarshi bolalarimizni emlataylik. Bu ishimiz Allohnинг quyidagi so‘ziga javob bo‘ladi inshaalloh. “Yaxshiliklarga shoshiling” (Baqara, 142). Rasululloh sallallohu alayhi vasallam “Solih amallarni bajarishga shoshiling”, deganlar (Abu Muslim Abu Hurayra roziyallohu anhu qilgan rivoyatda keltiriladi). Professor Yusuf Qarozoviy, Butundunyo musulmon ulamolari kengashi raisi.

Mavjud fatvo 20276 - Shayx Abdulaziz ibn Bozning bolalarni emlash va to‘g‘risidagi fikrlari yuqoridagilarni umumlashtiradi. Uning umumiy ma’nosi quyidagicha:

Emlash kasallikdan himoyalanish shakli bo‘lib, ma’lum bir shaxsning kasalligi yoki epidemiyaning oldindan oldini olishga harakat qilishning yomon joyi yo‘q;

Shariat qoidalaridan biri “ikki yomonlikdan eng kattasini oldini olish uchun kichigini tanlang, agar ikkitadan birini qilish zaruriyati tug‘ilsa”, – bu borada emlash afzalroqdir, chunki vaksinalarning umumiy foydasi ko‘proqdir. Shuning uchun emlashlar, agar ularning foydasi kasallikning zararidan ustun bo‘lsa ko‘rsatmalar asosida uni qabul qilish kerak.

Islom mamlakatlarida va aholisining aksariyati musulmon bo‘lgan mamlakatlarda emlashga ko‘ra Saudiya Arabistonida emlash qamrovi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, ushbu mamlakat hukumati iltimosiga ko‘ra meningokokk va difteriyaga qarshi emlash Makkaga Haj (ziyorat)ning barcha ishtirokchilari uchun majburiydir. Pandemiyadan oldin barcha ziyoratchilar meningokokk va difteriyaga qarshi emlanganlik to‘g‘risida xalqaro sertifikat taqdim etishlari shart edi. 2020-yildan keyin esa talablar kengaydi va endi COVID-19 ga qarshi emlanganlik isboti ham talab qilinadi.

Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) pandemiya davrida COVID-19 (Hayat-Vax vaktsinasi yoki VeroCell) ga qarshi vaksinalar ishlab chiqaruvchilardan biriga, shuningdek, koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash darajasi yuqori (90% dan ortiq) mamlakatlardan biriga aylandi.

Bangladesh Janubiy Osiyoda joylashgan davlatdir. Aholisining 90% musulmonlardir. 2017-yilda o‘n minglab rohinjalar Myanma rasmiylari ta‘qibidan qutulish uchun Bangladeshga qochib ketishgan. Myanmada rohinja xalqi muntazam emlash va asosiy tibbiy yordamga ega emas edi. Bu 2017-2018- yillarda difteriya, qizamiq va suvchechakning avj olishiga olib keldi.

Xalqaro tibbiyot tashkilotlari vazirlik bilan hamkorlikda Bangladesh sog‘liqni saqlash idoralari mamlakatning aksariyat tibbiyot muassasalarida vabo, difteriya, qizamiq va boshqa infektsiyalarga qarshi ommaviy emlashni amalga oshirdi.

Afg‘oniston Islom Amirligi poliomielit bilan kasallanish holatlari hali ham qayd etilayotgan kam sonli davlatlardan biridir. 2021-yilda uzoq davom etgan gumanitar inqiroz



tufayli qizamiqning yangi epidemiyasi boshlandi. Bu esa bolalar va kattalarda muntazam emlash bo‘limganda tarqalishi mumkin bo‘lgan xavfli infeksiyalardan biridir.

2021-yilda Tojikistonda poliomielit epidemiyasi qayd etilgan.

Butun dunyoga rahna solgan covid-19 kasalligini bartaraf etish va oldini olishda ham olimlar izlanishlari natijasida vaksinalar ishlab chiqilib, aholi o‘rtasida vaksinatsiya jarayonlari amalga oshirildi. Bu esa o‘z navbatida bu kasallikni kamayishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan bu borada chiqarilgan fatvoni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Professor Muhammad Salim AVVO, Butundunyo musulmon ulamolari kengashining bosh kotibi.

“Singapurga koronavirusga qarshi vaksinalar keltirilsa, men musulmonlarni emlashga, uning tarkibi haqida xavotirlanmaslikka chaqiraman. Chunki bu masalada din nuqtai nazaridan hamma narsa juda aniq. Ya’ni, vaksinada odamlarni qutqarish uchun “hayotiy zarurat” mavjud. “Shuning uchun emlash inson hayotining muqaddasligi tamoyillarini himoya qilish va zararni oldini olish uchun muhim vositadir”, dedi Singapur musulmonlarining diniy rahbari.

Singapur Islom markazida mazkur muhim masala yuzasidan ommaviy axborot vositalari ishtirokida anjuman o‘tkazilgan. Jurnalistlar bilan suhbatda shayx Naziruddin birinchi navbatda inson hayotini himoya qilish zarurligini ta’kidlagan. “Shubhaga borgan musulmonlarni tinchlantirish uchun biz shoshilinch ravishda vaksinani qabul qilish mumkinligini haqida fatvo chiqardik ”, degan shayx Naziruddin.

Shuningdek, ulamo ma’lum bir tarzda qayta ishlangan va filtrlash orqali bir necha marotaba tozalangan moddalar o‘zining asl xususiyatini o‘zgartirishi mumkinligi borasida islomiy tushunchalarni keltirib o‘tgan. “Har qanday hayvon hujayralaridan tashkil torgan vaksina yoki dori-darmon muayyan kimyoviy jarayonlardan o‘tib, bir necha marotaba qayta ishlanib, filtrasiya orqali tozalangandan so‘ng, bu moddada hayvon hujayralari qolmaydi, deb hisoblanadi va islomda qabul qilinadi”, deb xulosa qilgan shayx Naziruddin Mohd Nosir.

Vaksina nafaqat faol modda, balki turli xil yordamchi komponentlar ham uning tarkibini tashkil etadi, ularning ba’zilari “harom” (ta’qiqlangan) deb tasniflanishi mumkin.



Shunga asoslanib, ba'zilar emlashlar mumkin emas deb hisoblashadi, chunki najasni inson tanasiga kiritish ta'qiqlangan.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Usmonov I.Islomda sog'lom bola tarbiyasi. –Toshkent: Movarounnahr,2014. – B.160.
2. Прививки и мировые конфессии. Министерства здравоохранения РК и представительства Детского фонда ООН (ЮНИСЕФ) в Казахстане, а также согласована с Духовным управлением мусульман Казахстана (ДУМК). Стр 8.
3. <https://milliytibbiyat.uz/uz/emlash-vaksinatsiya-haqida/>
4. <https://uzpharmagency.uz/oz/news/vaksina-ozi-nima-vaksinatsiya-emlash-qildirish-kerakmi>
5. <https://milliytibbiyat.uz/uz/emlash-vaksinatsiya-haqida/>
6. <https://uzpharmagency.uz/oz/news/vaksina-ozi-nima-vaksinatsiya-emlash-qildirish-kerakmi>
7. <http://hazratnavoi.uz/maqolalar/3423-islomda-emlash-vakcinaga-munosabat.html>
8. <https://www.muftyat.kz/ru/articles/islam-and-society/2021-04-16/35844-dozvolenali-vaktsinatsiia/>
9. <https://wwwazon.uz/content/views/12-37-21-bolalarni-emlash-haq>
10. <https://vaccina.info/islam>
11. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/singapur-koronavirusga-qarshi-emlash-joizligitugrisida-fatvo-chiqardi>